mpcareer@mail.ru

http://mpcareer.ru




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI * TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI *
PEDAGOGIKA FAKULTETI

Научно-практический электронный журнал

# МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА

ISSN 2658-7998

9 772658 799001

Выпуск №35 (том 7)
(апрель, 2022)

Международный научно-образовательный
электронный журнал
«ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ»

УДК 37
ББК 94

**Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». Выпуск №25 (том 7) (апрель, 2022). Дата выхода в свет: 30.04.2022.**

Сборник содержит научные статьи отечественных и зарубежных авторов по экономическим, техническим, философским, юридическим и другим наукам.

Миссия научно-образовательного электронного журнала «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ» состоит в поддержке интереса читателей к оригинальным исследованиям и инновационным подходам в различных тематических направлениях, которые способствуют распространению лучшей отечественной и зарубежной практики в интернет пространстве.

Целевая аудитория журнала охватывает работников сферы образования (воспитателей, педагогов, учителей, руководителей кружков) и школьников, интересующихся вопросами, освещаемыми в журнале.

Материалы публикуются в авторской редакции. За соблюдение законов об интеллектуальной собственности и за содержание статей ответственность несут авторы статей. Мнение редакции может не совпадать с мнением авторов статей. При использовании и заимствовании материалов ссылка на издание обязательна.

© ООО «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА»
© Коллектив авторов

| | |
|---|---|
| ANALYSIS OF USE OF EPIGRAPHS IN THE NOVEL 'NORTH AND SOUTH' BY ELIZABETH GASKELL AND THE INFLUENCE OF SOCIAL MEDIA TO ITS CREATION PROCESS<br>Ozodakhon Izzatillaeva Elmurod qizi | 878 |
| JAMIYATDA SOG`LOM DUNYOQARASH VA BUNYODKORLIKNI TA'MINLASHDA OILA-TA'LIM-MAHALLA UZVIYLIGINI AMALGA OSHIRISH MASALALARI<br>Jumanazarova Saida Rustambek qizi | 882 |
| "GARNET BRACELET". THE GREAT POWER OF LOVE, CONTAINED IN THE SOUL OF A SMALL PERSON<br>Khudoyberdiyeva Kamola Jasur qizi | 889 |
| ONA TILI DARSLARIDA TALAFFUZDOSH SO'ZLARNI O'RGATISH TEXNOLOGIYALARI<br>Ergasheva Nozima Temirovna, Muhammadiyeva E'tibor Sulaymonovna, Saidova Xurshida O`ktamovna | 901 |
| MAINTENANCE OF NATURAL PROPERTIES OF COTTON AND ITS FIBER AND SEEDS IN TECHNOLOGICAL PROCESSES IN COTTON PROCESSING PLANTS<br>Ziyamukhamedova U.A., Turgunaliev E.T., Djumabaev A.B. | 909 |
| MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH<br>Tovboyeva Sabohat Anorboy qizi | 913 |
| INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM JARAYONIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI KENG TADBIQ ETISH<br>Sh.Sh. Boymurodov | 918 |
| CHIZMACHILIKDAN GRAFIK TOPSHIRIQLAR TIZIMINI YARATISH METODIKASI<br>Rustamov Axtam Muxtarovich, Rajabova Durdona Muzaffar qizi, Jusupova Nursaule Nuraliyevna | 921 |
| "TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARIDA PAYG'AMBARLAR HAQIDAGI QISSALARNING TAHLILI<br>Boyzoqova Dilnavoz Uzoq qizi | 929 |
| APPEALS AND THEIR PLACE IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES<br>Khazratkulova F.T. | 939 |
| INTRODUCING INNOVATIONS IN THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM<br>Ergasheva Nilufar Baxodir qizi | 942 |
| HOZIRGI KUNDA MAKTABLARDA ZAMONAVIY TA'LIM KLASSTERI SHAROITIDA IQTISODIY BILIM ASOSLARINI FANINI O`QITISH DAVR TALABI<br>Rasulov Akbar Nomozovich, Vafoeva Gulruh Bahodir qizi, Begmatova Laylo Shavkat qizi, Abduxakimova Nafosat Xasan qizi | 946 |

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

Пестерев С.В. – гл. редактор, отв. за выпуск

| | |
|---|---|
| Батурин Сергей Петрович | кандидат исторических наук, доцент |
| Боброва Людмила Владимировна | кандидат технических наук, доцент |
| Богданова Татьяна Владимировна | кандидат филологических наук, доцент |
| Демьянова Людмила Михайловна | кандидат медицинских наук, доцент |
| Еремеева Людмила Эмировна | кандидат технических наук, доцент |
| Засядько Константин Иванович | доктор медицинских наук, профессор |
| Колесников Олег Михайлович | кандидат физико-математических наук, доцент |
| Коробейникова Екатерина Викторовна | кандидат экономических наук, доцент |
| Ланцева Татьяна Георгиевна | кандидат экономических наук, доцент |
| Нобель Артем Робертович | кандидат юридических наук, доцент |
| Ноздрина Наталья Александровна | кандидат педагогических наук, доцент |
| Павлов Евгений Владимирович | кандидат исторических наук, доцент |
| Петрова Юлия Валентиновна | кандидат биологических наук, доцент |
| Попов Сергей Викторович | доктор юридических наук, профессор |
| Табашникова Ольга Львовна | кандидат экономических наук, доцент |
| Тюрин Александр Николаевич | кандидат географических наук, доцент |
| Усубалиева Айнура Абдыжапаровна | кандидат социологических наук, доцент |
| Фаттахова Ольга Михайловна | кандидат технических наук, доцент |

**ФИО авторов:** *Rasulov Akbar Nomozovich*

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

*Vafoeva Gulruh Bahodir qizi,*

Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktab menejmenti yunalishi Mmej-20/1 guruh talabasi

*Begmatova Laylo Shavkat qizi,*

Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktab menejmenti yunalishi Mmej-20/1 guruh talabasi

*Abduxakimova Nafosat Xasan qizi*

Chirchiq davlat pedagogika instituti Maktab menejmenti yunalishi Mmej-20/1 guruh talabasi

**Название публикации:** «HOZIRGI KUNDA MAKTABLARDA ZAMONAVIY TA'LIM KLASSTERI SHAROITIDA IQTISODIY BILIM ASOSLARINI FANINI O`QITISH DAVR TALABI»

**Annontatsiya:***Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslarini fanini o`qitishning самарали фойдаланиш механизмларини такомиллаштириш ҳақида таклиф ва тавсиялар берилган.*

**Kalit so'zlar:***Zamonaviy,ta'lim,muhit,o'quvchi,pedagogik,o'qituvchi,iqtisodiyot ta`limning ilmiy bo`lishi, ta`limda nazariy bilan amalyoti, ta`limdagi onglilik, faol harakatd, ta`lim jarayonini ko`rsatmasi, bilimlarni puxta olish, ta`lim jarayoni, tizimini demokratlashtirish, insonparvarlik.*

***Аннотatsiя:*** *В данной статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов эффективного использования предмета "Основы экономических знаний" в условиях современного образовательного кластера в общеобразовательных школах.*

***Ключевые слова:*** *современность,образование,окружающая среда,ученик,педагогика, научность экономического образования, соотношение теоретического и практического в образовании, осознанность в образовании, активное движение, ориентatsiя на процесс образования, овладение знаниями, процесс образования, демократизatsiя системы, гуманизм.*

***Abstract:*** *This article presents suggestions and recommendations for improving the mechanisms of effective use of the subject "Fundamentals of Economic Knowledge" in the conditions of a modern educational cluster in secondary schools.*

***Keywords:*** *modernity, education, environment, student, pedagogy, scientific nature of economic education, the ratio of theoretical and practical in education, awareness in education, active movement, orientation to the process of education, mastery of knowledge, the process of education, democratization of the system, humanism.*

Mamlakatimiz hududlarini kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xom-ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini hamda boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 mayda PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, uning ijrosi hududlarda mavjud salohiyatdan foydalangan holda yuqori sur'atlardagi iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hozirgi kunda mazkur ishning dolzarbligi yuqori hisoblanadi.

Hozirgi davrda iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan, dunyoga yangicha nuqtai – nazar bilan qaraydigan yoshlarni talab qilmoqda. Shu bois iqtisodiyotning tushunchalari, qonun-qoidalarini, uning sir-asrorlarini yoshlarga o'rta ta'lim maktabi davridanoq singdirib borish zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'isida" gi Qonuni, shuningdek Davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topgan g'oyalar, maqsad va vazifalardan kelib chiqilsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bugungi kundagi real ehtiyojlardan ortda qolmoqda.

Buning sababi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni iqtisod fani bo'yicha o'qitayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi masalalar, mashqlar, testlar yechish bo'yicha o'qitish tajribasiga ega emaslar va metodik qo'llanmalarga muxtojlik sezmoqdalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars jarayonida nazariy bilimlar berish bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham juda yaxshi natija beradi. O'quvchilarga

iqtisodiy masalalarni, mashqlarni, testlarni yechishni o'rgatish bilan bilim , malaka, ko'nikma hosil qilinadi.

Darslarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlardan ham foydalanish, ya'ni masalalar, mashqlar, testlar yechishdan foydalanish ham o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

Hozirgi davrda maktablarida iqtisodiy fanlarni o`rganisda masala masalalardan foydalanish metodining tutgan o`rni juda muhimdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib,ularni o`rganishda markaziy o`rinni masala,mashq yechish egallaydi.Sababi:

1)masala,masq yechishni mukammal bilish,olgan bilimni amaliyotda qo`llash imkonini beradi;

2)masala,masq yechish orqali o`quvchilarning bilim olishdagi faolligi ortadi;

3)masala mashq fikrlashga o`rgatadi.

Shuning uchun ham masalaga faqat topshiriqni hisob kitob asosida bajarish,javobini aniqlash emas,balki fikr yuritish ob`ekti sifatida qaratilishi bejiz emas.

Masala yordamida fanni o`rganganda aniq raqamlar,dalillar,hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng.Undan tashqari modellashtiruvchi o`yin,kichik guruhlarga bo`lish, konkurs o`tkazish va boshqa metodlar asosida dars o`tishda ham masala,masqlardan keng foydalanish imkoniyati katta.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlardagi mashlar o`quchilarning mushohada qilish, xulosa chiqarishga o`rgatih bilan birga kam vaqt sarflashga,ayrim masalalarda ikkilanib turgan o`quvchilarning to`g`ri javob topishga o`rgatadi.

Masala,mashq yechish jarayonida o`quvchilarning qabul qilingan qonunlar, me`yoriy hujjatlar va yo`riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin.Ulardan munozara,debatlar metodini qo`llashda ham keng foydalansa bo`ladi.

Masala, mashqlar o`quvchilar bilimini sinashda ham eng qulay metod.Masala,mashqlardan fanni o`rgatish uchun targatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin.Ulardan darsda foydalanish turli interaktiv metodlarni qo`llab dars o`tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o`tkazish shaklida tashkil etish mumkin.Bunda teng kuchli masala mashlar tayyorlanib,kichik guruhlarga,juftlik yoki individual tarzda yechishga qarab darsda qo`yilgan maqsad amalga oshiriladi.

Masala,mashlar murakkabligi jihatidan tabaqalashgan holda tuzilib,o`quvchilarning salohiyatiga ko`ra beriladi.Natijada murakkab masalani yecholmay hafsalasi soviydigan o`quvchilarni ham darsga,o`rganilayotgan mavzuga diqqatini qaratish mumkin.

Xullas masala,mashqlar bir tomondan sinalgan,qadimiy dars o`tish uslubi bo`lsa, ikkinchi tomondan,imkoniyatlari nihoyatda ko`pligi tufayli eskirmaydigan,doimo zamonaviy,uchinchidan,universal,barcha iqtisodiy fanlarni o`rganishda qo`llash mumkin bo`lgan metoddir.Iqtisodiy fanlarni o`rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega,ya`ni:

*Masalalardan foydalanish amaliyot yo`nalishiga ega bo`lgan uchun mavzuni o`rganish va o`quvchilar bilimini nazorat qilishning samarali usuli hisoblanadi. Ayniqsa,o`quvchilarning bilimini nazorat qilishda imkoniyati katta.

*Masala mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin.Masalalar o`quvchilar bilimini butun dastur bo`yicha nazorat qilish,shu bilan birga,asosiy yoki qiyin kategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo`lishi mumkin.

*Masalalarning muntazam yechib turilishi hamda uni muhokama qilish o`quvchilarning olgan bilimini uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

O`quvchilarning puxta bilim olishlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni chuqur o`rganishlarining eng samarali metodlaridan biri masala va mashqlardan foydalanish qanday ahamiyatga ega ekanligi ko`rib chiqdik. O`qituvchi masala va mashqlarni o`quv jarayonida turli shakllarda ishlatishi mumkin.

O`qituvchi dars berishga tayyorlanar ekan, mavzuni o`qishda qo`llaydigan metodlarni,jumladan,masala,mashqlarni chuqur o`ylab,ulardan qanday tarzda foydalanishni ko`z o`ngiga keltirishi zarur.

Masala va mashqlar iqtisodiy kategoriya,qonunlarni sifat xarakteristikasi bilan birga miqdor aloqalarini ham o`zida mujassamlashtirilishi bilan muhim rol o`ynaydi.

Masala va mashqlar hisob kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o`quvchilarning aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi. Chunki,iqtisodiyotni nazariy jihatdan o`rganishda,ko`pincha,ilmiy abstraktsiyadan foydalaniladi. Ko`pchilik o`quvchilar ilmiy abstraktsiya metodini tezda tushunishmaydi.

Masala va mashqlardan nazariy darslarda foydalanishga ikki nuqtai nazardah yondashish mumkin:

A)Umumta`lim maktablari, akademik litsey,kasb-hunar kollejlaridagi iqtisodiy va nazariy jihatdan o`rganadigan fanlar:"Iqtisodiy bilim asoslari","Iqtisodiyot asoslari"oliy o`quv yurlarida o`rganiladagan "Iqtisodiyot nazariyasi" fanlarini o`rganishda masala,mashqlardan foydalanish.

B)Barcha iqtisodiy fanlardan nazariy dars o`tishda masala, mashqlardan foydalanish.

Masala,mashqlar uchun quyidagi qoidalar umumiy hisoblanadi.

1.Nazariy darslarda masala, mashqlardan foydalanish me`yorini bilish zarur. Masala,mashqlardan keragidan ortiq foydalanilsa,nazariy masalalarni yoritishda vaqt yetmay qoladi.

2.Ma`ruza darsi ushun qisqa vaqtda yechiladigan masala tuzgan yoki tanlagan ma`qul.

3.Ma`ruzada qo`yilgan masala, mashqni oxirigacha yechish shart emas. Ba`zan masala mashqni ma`ruza jarayonida boshlab,mustaqil ravishda davom ettirishi o`quvchilarga topshrish mumkin.Ma`ruza jarayonida o`tuvchi masala, mashqni doskada yoki og'zaki shaklda yechishi mumkin. Ularni oldindan ko'rgazmali qurol yoki tarqatma material sifatida tayyorlanadi. Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi, o'quvchilarga individual yondashishning imkoniyati katta. Ularda u yoki bu turdagi qiyinchilik kelib chiqsa, o'qituvchining tushuntirishi, ayrim nazariy qoidalarni aniqlashtirishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi orqali tezda yordam berib yuborishi mumkin bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish metodlariga uch xil yondashuv mavjud. Nisbatan eng ideal varianti bo'lib, amaliy mashg'ulotda nazariy savollarni muhokama qilib bo'lgach, masala, mashq yechib, nazariy bilimni

mustahkamlash hisoblanadi. Bunda o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan dars soati imkon berishiga qaraladi. Masalan, ish bilan bandlik, ishsizlik va uning shakllarini muhokama qilib, nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida quyidagi masalani yechish mumkin.
Maktab o'quvchilarining iqtisodiy fikrlash tarzini shakllantirishning kesishgan, fundamental yondashuvlarini ajratib ko'rsatish va qayd etish kerak. Shunday qilib, iqtisodiy resurslarning tanqisligi sababli tanlov muammosi iqtisodiy blokning butun yo'nalishi bo'ylab o'tishi kerak. Ishlab chiqarish maqsadlari, ishlab chiqarish texnologiyasi va iqtisodiy foydani taqsimlash tamoyillarini belgilashda uning qanday sinishi ko'rsatilishi kerak. U bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy qarama-qarshiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari tavsiflanishi kerak. Ushbu muammoni muayyan vaziyatlar darajasida o'rganish va muhokama qilish, ishsizlik, raqobat, ish va yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarga psixologik qarshilik ko'rsatishga yordam beradi. amaliy faoliyatdagi bilim va ko'nikmalar va Kundalik hayot iqtisodiy ma'lumotlarni olish va baholash, oilaviy byudjetni tuzishda fikri shakllanib, o'ziga ishonch ortadi.
Har bir o`quv fanini o`qitish fanni o`rganishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari haqidagi fan ma`lumotlari asosida quriladi, bu fan o`qitish uslubiyoti deb ataladi. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o`qitish uslubiyoti shu fanning o`ziga xos tomonlarini va o`quvchilarni yosh xususiyatlarini e`tiborga oladi. Natijada mashq qilish, o`qish o`rganish va idrok etish, xilma xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi: Nasaf, 2000. 2.

2. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: "Iqtisod-moliya", 2010. -728 bet.

3. O‘lmasov A., Vaxobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: "Iqtisodmoliya", 2014. -480 bet.
4. R.Musurmonov “Ta’lim sifatini boshqarishga ijobiy ta’sir etuvchi omillar haqida”, Киргизия Вестник Баткентского гос. Универ. Ж. 2008. № 5.